

GEYMIFIKATSIYANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Xasanova Shohista Mirzaahmad qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-kurs tayanch doktoranti
E-mail: lazuriyasmart@gmail.com
Tel: +998 889993441

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21196601>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘rta sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda geymifikatsiyaning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Geymifikatsiyaning nazariy asoslari, uning motivatsion mexanizmlari hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, Edvard Desi va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi nuqtai nazaridan geymifikatsiya elementlarining ichki va tashqi motivatsiyani shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari geymifikatsiyaga asoslangan ta’lim faoliyatlari o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, geymifikatsiya, motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, kompetensiya, avtonomiya, aloqadorlik, o‘quv faoliyati.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности геймификации в развитии навыков критического мышления у учащихся среднего звена школы. Рассматриваются теоретические основы геймификации, её мотивационные механизмы и влияние на учебную деятельность учащихся. Особое внимание уделяется роли элементов геймификации в формировании внутренней и внешней мотивации с точки зрения Теории самодетерминации Эдварда Деси и Ричарда Райана. Результаты исследования показывают, что образовательная деятельность, основанная на геймификации, способствует повышению активности, самостоятельности и развитию навыков критического мышления учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, геймификация, мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, теория самодетерминации, компетентность, автономия, связанность, учебная деятельность.

Abstract. This article examines the pedagogical potential of gamification in developing critical thinking skills among middle school students. The theoretical foundations of gamification, its motivational mechanisms, and its impact on students’ learning activities are analyzed. Particular attention is paid to the role of gamification elements in fostering intrinsic and extrinsic motivation from the perspective of the Self-Determination Theory developed by Edward Deci and Richard Ryan. The findings indicate that gamification-based educational activities contribute to increasing students’ engagement, autonomy, and critical thinking skills.

Keywords: critical thinking, gamification, motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, self-determination theory, competence, autonomy, relatedness, learning activities.

Kirish



Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilarda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining ortishi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi o’quvchilardan ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash hamda asosli xulosalar chiqarishni talab etmoqda. Biroq amaliyotda motivatsiyaning pastligi va an’anaviy metodlarning cheklanganligi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi geymifikatsiyaning motivatsion mexanizmlarini tahlil qilish va uning tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda geymifikatsiyaning nazariy asoslari, motivatsiya turlari hamda o’z-o’zini belgilash nazariyasi nuqtai nazaridan kompetensiya, avtonomiya va aloqadorlik ehtiyojlari o’rganildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi geymifikatsiya va tanqidiy fikrlash o’rtasidagi bog’liqlikning pedagogik jihatdan tahlil qilinganligida namoyon bo’ladi. Olingan natijalar umumta’lim maktablarida geymifikatsiyaga asoslangan ta’lim faoliyatlarini tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Geymifikatsiya so’nggi yillarda ta’lim, biznes, marketing va boshqaruv kabi turli sohalarda keng qo’llanilayotgan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o’yinlarga xos bo’lgan elementlar va mexanizmlarni o’yin bo’lmagan faoliyatlarga tatbiq etish orqali ishtirokchilarning faolligi, qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. Ta’lim jarayonida geymifikatsiya o’quvchilarni faol ishtirok etishga undash, o’quv faoliyatini qiziqarli tashkil etish hamda bilimlarni samarali o’zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, geymifikatsiyaning samaradorligi uning inson motivatsiyasiga ta’sir ko’rsatish qobiliyati bilan izohlanadi. Shu sababli geymifikatsiyaning psixologik va pedagogik asoslarini, xususan uning motivatsiyani shakllantirishdagi rolini o’rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda geymifikatsiyaning motivatsion mexanizmlari hamda ularning tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishdagi o’rni nazariy jihatdan tahlil qilinadi. K.Verbah va D.Hunter o’z asarlarida geymifikatsiyaning uch yoqlama ahamiyatini hamda uning turli sohalarda qo’llanilish sabablarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning fikriga ko’ra, geymifikatsiya turli faoliyat sohalarda ishtirokchilarning faolligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Geymifikatsiya inson xulq-atvorini ma’lum maqsadga yo’naltiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Buning asosiy sababi inson miyasining mukofot va rag’bat tizimiga tabiiy ravishda moyilligi bilan bog’liqdir. Geymifikatsiya elementlari (yutuqlar, mukofotlar, ball tizimi, baholash va rag’batlantirish) miya mukofot tizimini faollashtirib, motivatsiya va zavqlanish hissini kuchaytiradi. Geymifikatsiyaning ikkinchi muhim ta’siri tajriba orqali o’rganish jarayonida namoyon bo’ladi. Ishtirokchi o’zini sinab ko’rish imkoniyatiga ega bo’ladi, xatolar esa muvaffaqiyatsizlik sifatida emas, balki qayta urinib ko’rish uchun imkoniyat sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, geymifikatsiya xavfsiz o’quv muhiti sifatida ishlaydi. O’yin murakkabligi ishtirokchining bilim va ko’nikma darajasiga moslashtirilganda, muvaffaqiyat hissi kuchayadi, muvaffaqiyatsizlik esa motivatsiyani pasaytirmasdan, aksincha rivojlanishga undaydi. Nihoyat, geymifikatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri uning natijaga yo’naltirilganligidir. Ko’plab tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, geymifikatsiya akademik, sanoat va biznes sohalarda samaradorlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli u zamonaviy ta’lim va boshqaruv tizimlarida keng qo’llanilayotgan yondashuvlardan biriga aylangan. Geymifikatsiyaning ta’siri ko’plab tadqiqotchilar tomonidan uning motivatsiyani oshirish

qobiliyati bilan izohlanadi. Motivatsiya atamasiga to’xtaladigan bo’lsak, u lotincha “motivus” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “harakatga keltiruvchi turtki” degan ma’noni anglatadi. Demak, motivatsiya insonni ma’lum faoliyatni amalga oshirishga undovchi ichki yoki tashqi kuch sifatida talqin etiladi. Motivatsiya odatda ikki turga bo’linadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya shaxsning o’z ichki qiziqishi, ehtiyoji, istagi va zavqi asosida yuzaga keladigan harakatlantiruvchi kuchdir. Bunda inson faoliyatni majburiyat tufayli emas, balki qiziqish va qoniqish hissi sababli bajaradi. Masalan, o’quvchining muayyan fanga qiziqishi, o’qish jarayonidan zavq olishi va bilim olish jarayonini yoqimli tajriba sifatida qabul qilishi ichki motivatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tashqi motivatsiya esa tashqi omillar (mukofot, baho, maqto’v, majburiyat yoki jazodan qochish) bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, o’quvchi ota-onasi yoki o’qituvchisining rag’bati, talab yoki baho olish maqsadida o’qisa, bu tashqi motivatsiyaning namunasidir [3].

Ichki motivatsiya tashqi motivatsiyaga nisbatan uzoq muddatli va barqaror hisoblanadi, chunki u shaxsning ichki ehtiyoji, qiziqishi va maqsadlaridan kelib chiqadi. Tashqi motivatsiya esa ko’proq vaqtinchalik bo’lib, u mukofot, baho yoki majburiyat kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Geymifikatsiya esa o’z tabiatiga ko’ra ham ichki, ham tashqi motivatsiyani qo’llab-quvvatlovchi samarali yondashuv hisoblanadi. Tashqi rag’batlantirish (masalan, ballar, nishonlar, reytinglar) qisqa muddatli faollikni oshirsa, u asta-sekin ichki qiziqish va o’rganishga bo’lgan ehtiyojning shakllanishiga ham turtki beradi. Shu bilan birga, ichki motivatsiyaning qanday shakllanishi, uning qaysi psixologik mexanizmlarga asoslanishi va uni qanday rivojlantirish mumkinligi pedagogik nuqtai nazardan muhim masaladir. Shu jihatdan geymifikatsiya o’quvchilarda dastlab vaqtinchalik (tashqi) motivatsiyani qo’zg’atib, keyinchalik esa barqaror ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladigan usul sifatida qaraladi [1].

Motivatsiyaning shakllanish tamoyillarini anglash maqsadida Edvard Desi va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan *O’z-o’zini Belgilash Nazariyasiga* (Self-Determination Theory) murojaat qilindi [2].



1.5-rasm. O’z-o’zini Belgilash Nazariyasi [2]

Ushbu nazariyaga ko’ra, insonda ichki motivatsiyaning shakllanishi uchun uch asosiy psixologik ehtiyojning qondirilishi muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini Belgilash Nazariyasiga binoan, bu ehtiyojlar uch toifaga ajratiladi: kompetensiya, aloqadorlik va avtonomiya. Kompetensiya shaxsning muayyan faoliyatni samarali bajarish, mahoratga erishish va o’z qobiliyatini rivojlantirish ehtiyojini anglatadi. Aloqadorlik insonning ijtimoiy

munosabatlarga kirishish, boshqalar bilan bog'lanish va jamiyatda o'z o'rnini his qilish ehtiyojidir. Bu ehtiyoj shaxsda xavfsizlik, qabul qilinish va ahamiyatlilik tuyg'usini shakllantiradi. Avtonomiya esa shaxsning o'z harakatlarini mustaqil ravishda boshqarishi, qarorlarni erkin qabul qilishi hamda o'z qadriyatlariga mos hayot kechirishini anglatadi. Ushbu uch ehtiyojni qondiruvchi faoliyatlar ichki motivatsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, agar muayyan vazifa shaxsda kompetensiya hissini rivojlantirsa, ya'ni uni bajarish jarayonida ko'nikmalar shakllansa va ish osonlashib borsa, ushbu faoliyat barqaror motivatsion omilga aylanadi. Shuningdek, faoliyatda ma'lum darajada avtonomiya mavjud bo'lsa, ya'ni shaxs qaror qabul qilishda mustaqillikni his etsa, bu ichki motivatsiyani yanada kuchaytiradi. Aloqadorlik hissi esa ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish va boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish orqali shakllanadi, bu esa shaxsning psixologik farovonligi va motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari geymifikatsiyaning o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Geymifikatsiya elementlari nafaqat tashqi rag'batlantirishni kuchaytiradi, balki kompetensiya, avtonomiya va aloqadorlik ehtiyojlarini qondirish orqali ichki motivatsiyaning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, geymifikatsiya o'quvchilarni muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va xulosalar chiqarishga undab, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli geymifikatsiyadan ta'lim jarayonida foydalanish o'quv samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ryan, R. M. Intrinsic and Extrinsic Motivation from a Self-Determination Theory Perspective / R. M. Ryan, E. L. Deci // Contemporary Educational Psychology. — 2020. — Vol. 61. — Article 101860. — DOI: 10.1016/j.cedpsych.2020.101860.
2. Ryan, R. M. Self-Determination Theory / R. M. Ryan, E. L. Deci // Encyclopedia of Quality of Life and Well-Being Research / ed. F. Maggino. — Cham : Springer International Publishing, 2023. — P. 6229–6235. — DOI: 10.1007/978-3-031-17299-1_2630.
3. Werbach, K. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business / K. Werbach, D. Hunter. — Philadelphia : Wharton Digital Press, 2012. — 148 p.